

8.2. Agar shartnoma bo'yicha bir taraf O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi xodimining axloqqa to'g'ri kelmaydigan va ushbu shartnoma yoki O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga zid keladigan xatti-harakatlariga, shu jumladan, korruptsiyaga oid huquqbuzarlik sodir etishga majburlashdan iborat bo'lgan faktlarga duch kelsa, bu haqda quyidagi aloqa kanallaridan biri orqali xabardor qilishi kerak: "1008" ishonch telefoni; Telegram-kanali (@anticorbot); Adliya vazirligining rasmiy veb-saytida joylashtirilgan shakl yoki elektron pochta.

8.3. Ushbu shartnomaning bajarilishida yuzaga keladigan har qanday nizo va kelishmovchiliklar tomonlar o'rtasida o'zaro muzokara yo'li bilan hal etiladi. Kelishuvga erishilmagan taqdirda esa nizolar belgilangan tartibda ixtisodiy sudlar orqali hal etiladi.

8.4. Shartnomaga kiritiladigan har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar yozma ravishda bo'lib, har ikkala tomon imzolagandan keyingina haqiqiy hisoblanadi.

8.5. Ushbu shartnoma 2 nusxada tuzildi va teng xukukiy kuchga ega.

8.6. Shartnoma tomonlar o'rtasida imzolangan va agar «Iste'molchi» byudjet tashkiloti bo'lsa, bunga qo'shimcha ravishda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining xududiy g'aznachiligidan ro'yxatdan o'tgan kundan kuchga kiradi va 2022 yil 31 dekabr gacha amal qiladi.

9. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI

«TAMINOTCHI»
«ISTE'MOLCHI»

Qiziriq tuman

«Termiz neft bazasi» M.Ch.J. Jarkurgon filiali

Toshkent sh "UZSANOATKURILISHBANK" ATB

MFO 00432 STIR 200473847

X/R 2260400049056749701

Filial boshlig'i *[Signature]* S. T. Safarov

Bosh xisobchi: *[Signature]*

Ichki boshqaruvi: *[Signature]*

Xuqushunligi: *[Signature]*

M. O.

Kizirik tumani "Obodonlashing" bulimi

Kizirik tuman

Bank H/R 100022860222157065200110001.

Bank MFO-00345 STIR 200029224

Korxonalar raxbari: *[Signature]*

M. O.

2022 yil 24 - *[Signature]* - dagi

JBK/10 - sonli shartnomaga ilova

SPESIFIKASIYA

| Neft mahsulotining nomi, | Dav. STTSh | O'lchov birligi | Narxi | Yillik miqdori | Etkazib berishi summasi | QQS | Summasi |
|--------------------------|------------|-----------------|--------|----------------|-------------------------|-----|----------|
| AI-80 | | tn. | | | | | |
| AI-91 | | tn. | | | | | |
| AI-92 | | tn. | | | | | |
| AI-93 | | tn. | | | | | |
| DYO | | tn. | | | | | |
| DYO EKO | | tn. | 10 000 | 2000 | 20000000 | | 20000000 |

Izoh: neft mahsulotlar narxlarini birja savdolari natijalariga ko'ra o'zgartiradi.

«Etkazib beruvchi»

M. O.

«Iste'molchi»

M. O.

Budjet tashkilotlariga neft mahsulotlarini yetkazib berish haqidagi

JBK/10- sonli SHARTNOMA

2022 yil 24-yanvar

Jarqurg'on tumani

Keyingi o'rinda «Yetkazib beruvchi» deb ataluvchi «Termiz neft bazasi» M.Ch.J. nomidan Ishonchnoma № 12-144 27.12.2021 y. asosida faoliyati yurituvchi filial boshlig'i S.T.Safarov bir tomondan va «Iste'molchi» deb ataluvchi Kizirik tumani "Obodonlashing" bulimi nomidan nizomiga asosida faoliyat yurituvchi Y.Shodiyev ikkinchi tomondan, ushbu shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

1. SHARTNOMA MAZMUNI

1.1. «Etkazib beruvchi», «Iste'molchi»ning buyurtmasi asosida tegishli rusum va miqdordagi neft mahsulotlarini yetkazib berish, «Iste'molchi» esa yetkazib berilgan neft mahsulotlarini qabul qilib olish va haqini to'lash majburiyatlarini ushbu shartnomada keltirilgan shartlarda bajarishni o'z zimmlariga oladilar.

1.2. Tomonlar o'zaro kelishilgan holda ma'lum davr (oylik, choraklik yoki yillik davr) uchun yetkazib berilishi ko'zda tutilgan neft mahsulotlari turlari, assortimentlari va miqdorlarini ushbu shartnomaning 1- ilovasidagi spetsifikatsiya orqali belgilab oladilar.

Spetsifikatsiya ma'lumotlaridan tomonlar o'z shartnomaviy majburiyatlarini bajarishda, jumladan «Iste'molchi» buyurtmalarini shakllantirishda, «Etkazib beruvchi» esa neft mahsulotlarining zarur zahirasini oldindan yaratishni rejalashtirishda foydalanadilar.

2. NEFT MAHSULOTLARI NARXLARI VA HISOB – KITOB TARTIBI

2.1. Shartnomaning taxminiy umumiy summasi QQS bilan *20000000 (yuz million)* so mni tashkil

2.2. Yetkazib beriladigan neft mahsulotlarining narxlarini «Yetkazib beruvchi» tomonidan Budjet tashkilotlari, paxta xomashyosi va g'alla ishlab chiqaruvchi fermer xo'jaliklari va paxtato'qimachilik klasterlari, «O'zbekiston temir yo'llari» AJ, «Toshshaxartransxizmat» AJ, maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqish bo'yicha davlat korxonalariga dizeyl yoqilg'isi (shu jumladan EKO markali dizeyl yoqilg'isi) o'tgan haftada gi birja savdolari natijalariga ko'ra shakllangan o'rtacha birja narxlarida shakllanadi. Boshqa neft mahsulotlari esa neft baza tomonidan sotib olish va transportirovka xarajatlari hamda neft bazaning ustamasidan shakllangan narxlarda shakllanadi.

2.3. «Etkazib beruvchi», «Iste'molchi»ning buyurtmasi olingan zahoti yetkazib berilishi so'ralgan neft mahsulotlarining o'sha kundagi joriy narxlarini unga ma'lum qiladi. «Iste'molchi» mazkur narxlar asosida buyurtmadagi neft mahsulotlari partiyasining tegishli hajmi uchun 100 foiz oldindan to'lovlarni 5 kun ichida amalga oshiradi. Aks holda «Etkazib beruvchi» neft mahsulotlari uchun yangi joriy narxlarni qo'llashi mumkin.

2.4. Yetkazib beriladigan neft mahsulotlari uchun to'lovlar «Etkazib beruvchi»ning bankdagi hisob raqamiga pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.